

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

Rus tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi R.Tojimatovning

“Boburnoma”dagi she'riy parchalar xususida.

ILMIY MAQQOLASI

Namangan-2018

“Boburnoma”dagi she’riy parchalar xususida

Zahiriddin Muhammad Bobur o’zbek mumtoz adabiyotining mashhur namoyondalaridan biridir. Uning serqirra hayoti va ijodiy faoliyati uch ulkan hududda kechdi: Bobur hayotini Farg’ona viloyatining hukmdori sifatida boshladi, keyinchalik Afg’oniston hukmdoriga aylandi, umrining oxirgi yillarida Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi. Ijod olamidashoir, nosir va adabiyotshunos sifatidanom qozondi. “Boburnoma” asari uning nomini jahoniy miqyoslarga olib chiqdi.

Bobur, avvalo, iste’dodli shoir edi. Bobur she’riyati – barkamol inson qalbidagi his-tuyg’ular mahsuli bo’lgan ehtirosli, jozibali she’riyat. Shoirning hayoti ziddiyatli bo’lsa-da, go’zal tuyg’ularga boy. U – ishqodami. Sevgi – kuychisi. Uning uchun she’rni sevish, she’r harorati bilan yashash qonuniy extiyoj. U yoz faslining sururini suyadi. Javrda nodir, zulmda mohir, shivada qodir, g’amzada ustod yor vasli ishtiyoqida o’rtanadi. Do’stlarning suhbati esa uning dil fayzi. Shuningdek, Bobur she’rlarining aksariyatida dilida azobi bor, ezgu hislari yaralangan, biroq ezgulik, yaxshilik, insoniylikka ishonchi sobit oddiy shaxsning o’z davri va muhitiga nisbatan ko’ngilsiz munosabati, zamonga yuz burish, uni inkor etish his-tuyg’ulari ifoda etiladi. Shoirning yirik qahramoni uzluksiz qayoqlargadir bosh olib ketish orzusini bildiradi. Zamonasining nosozligidan, zulmdan o’zga ishni bilmasligidan o’zicha qayg’uradi, lekin u o’z vatanini katta ishtiyoq bilan sevadi. Vatanga muhabbat, uni qo’msash mavzusi shoir lirikasida birinchi o’rinni egallaydi. Boburning ko’pgina she’rlari bevosita uning siyosati, g’alabasi yo mag’lubiyatining poetik ifodasidir. Shoir lirikasidagi vatan ishtiyoqi, otashin ishqning hasrat va nadomatlarini ham bevosita murakkab hayoti va kurash yo’li, shodiyona va alamli sarguzashtlari bilan bog’liq.

Farg’onada tug’ilib o’sgan, 899(1494-1495)yili, o’n ikki yoshida Andijonda hokimiyat taxtiga o’tirgan, ikki bor Samarqandni o’z ixtiyoriga o’tkazgan. Bobur mirzo taqdir zarbalari ostida Farg’ona va Movaraunnahrni tashlab, o’zga yurtlarga yuz burishga majbur bo’ldi

U 909(1503-1504)yilda Qobul va G’azna viloyatlarini egalladi. Boburning o’z Vataniga qaytmoq yo’lidagi keyingi intilishlari ham amalga oshmadi, unga o’z vataniga qaytish nasib bo’lmadi, umrining oxirigacha o’z yurtidan uzoqda g’ariblikda hayot kechirdi.

Uning bu davrdagi ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, dard va alamlari, iztiroblari turli janrlardagi lirik she'rlardai o'z aksini topdi.

Bobur lirikasini tuyg'u va fikrlarning yilnomasi deb aytish mumkin. Shoir she'rlarini ko'zdan kechirsak, uning o'y va sezgilari, kayfiyati, qaysi ahvolda va qayoqqa tomon borayotganligini hamda qaysi she'rlarini qayerda va qachon qog'ozga tushirganligini belgilay olamiz.

Andijon, Samarqandni qo'ldan chiqargan Bobur Toshkentga yo'l oladi. Yaqinlaridan tayinlik yordam ololmagan Bobur o'zini go'yo g'urbatdayashayotgandek his qiladi:

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi,
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,
G'urbatda sevunmas emish, albatta, kishi¹.

“Boburnoma”dan o'rin olgan mazkur ruboiy kundalik turmush tashvishlari, uqubat va g'urbat ostida ezilgan g'arib ko'ngilning bo'g'iq faryodi edi. Bobur bu paytda g'urbat o'z peshonasiga yozilganligidan bexabar edi.

Movarounnahrni bir davlat qilib birlashtirish orzusi barbod bo'lgach, Bobur ancha umidsizlikka tushadi, ruhiy qiynoqlar domiga tortiladi. Shuning uchun ham Boburning shu davr bilan bog'liq ayrim she'rlarida o'z yurtini tark etish istagi ifodalanadi:

Xush ul kim yordin qat aylabon tarki diyor etsa,
Jahon kezmak ila beqaydlig'ni ixtiyor etsa.²

Shoir buning sababini bevafo yorning jafokorligibikan bog'lasa-da, uning asl sabablari boshqa edi. O'z yurtidagi odamlarning, amiru amaldorlarning, bevafo yaqinlarining xiyonatlaridan dili og'rigan Bobur o'zga yurtlarga bosh olib ketishni xohlaydi.

E'tiborlisi shundaki, Boburning bu kabi g'azal va ruboiylarini o'qir ekanmiz, avvalo, uning hayot yo'li bilan tanishamiz. Shu bilan birga, mazkur she'rlarning xronologiyasini ham ma'lum darajada tasavvur qilamiz.

¹ Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. –Toshkent: Sharq, 2002. –B.89. Keyingi o'rinlarda shu nashrga murojaat qilinadi va sahifalar qavs ichida ko'rsatiladi.

²Zahiriddin Muhammad Bobur. Sochiniing savdosi tushti... –Toshkent: Sharq, 2002. –B.89.

Bobur she'rlarining xronologiyasini belgilashda eng ishonshli manbalardan biri "Boburnoma"dir. Asar shoirning mualliflik biografiyasiga doir nihoyatda aniq ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari «Boburnoma»da turli voqealar munosabati bilan bir qancha g'azal, ruboiy, masnaviy, fard kabi janrlardagi she'rlar tilga olinadiki, qaysi yillardagi voqealar hikoya qilinayotganidan kelib chiqib, ularning qachon yozilganligini aniq aytish mumkin. Xususan, "Boburnoma" "Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim", "Kim ko'ribdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig", "Yangi oy yuzi birla ko'rib ey shodu hurramlar", "Mening ko'nglimki gulning g'unchasidek tah-batah qondur", "Charxning men ko'rmagan jabru jafosi qoldimu?", "Qoshiyu qaddiyu og'zin ul moh" kabi g'azallar tilga olinadi. Ular shoir shaxsiy kechinma va tuyg'ulari aks etgan avto biografik g'azallar sifatida baholanishi mumkin

«Topmadim» radifli g'azali Boburning birinchi tugal g'azalidir. Shoir «Boburnoma»da birinchi g'azali hijriy 907, melodiyl 1502-yining I yozida Somsiyrak atrofidagi Turon chorbog'ida yozilganligini qayd etad:

»Ul g'azalikim, tugattim. Ushbu kun, ushbu yurtta tugattim. Ul tugangan g'azal budur:

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,

Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim(89).

Bu g'azal yetti bayt turur. Mundin so'ng har g'azalkim tugandi, o'shul tarti bila o'q bitldi»(98,1).

«Yangi oy birla, ko'rub el ushbu xurramlar» misrasi bilan boshlanuvchi g'azali 913(1503-1504) yillarda yozilgan bo'lib, an'anaviy tasvir vositalari orqali real voqealar va hodisalar va kechinmalarni aks ettirgan. Bobur g'azalning matlasi - birinchi baytini va ma'no oxirgi baytini keltiradi:

Yangi oy birla, ko'rub el ushbu xurramlar

Manga yuzu qoshingdin oyru bayram oyida g'amlar,

Yuzi navro'zyu vasli iydin, Bobur, g'animat tut,

Ki mundin yaxshi bo'lmas, bo'lsa yuz navro'zu bayramlar(120).

Bahor va yor ta'rifi, vatan ishtiyoqi, qalb iztiroblarini tarannum etuvchi «Mening ko'ngulning g'unchsidek tah-batah qondur» misrasi bilan boshlanuvchi g'azali 913(1506-1507) bahorida Qobul viloyatining Boron, Gulbahor degan joylaridagi lolazor bag'rida yozilgan edi. Qobul bahorining ajib latofatidan zavqlangan Bobur o'z qalb hayajonlarini quyidagi misralarga joy qilar:

Mening ko'nglumki gulning g'unchasidek tah- batah qondur,

Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'I noimkondur(152).

1506-1507-yilning qishida sodir bolgan voqealar haqida hikoya qilar ekan, Bobur shu da quyidagi matla bitilganini ma'lum qiladi:

Charxning men ko'rmagan javru jafosi qoldumi?

Hasta ko'nglum chekmagan dardu balosi qoldumi?(147)

Ushbu g'azal matlasini dunyoga kelishida «Boburnoma»da batafsil ma'lum berilgan. Shoirning mashhur «Qldumi?» radifli g'azal 1507- yilda Hirot- Qobul yolida yozilgan.

1500-1501-yillar voqealarini hikoya qilar ekan, Bobur quyidagi baytni keltiradi.

Kim ko'rubdur, ey ko'ngul ahli jahondin yaxshilig'

Kimki ondin yaxshi yo'q ko'z tutsa ondin yaxshilig'

Hikoya qilingan yillarda Bobur hayotidagi eng og'ir damlarni boshidan kechirgan edi. U o'zi uchun noqulay bir sharoitda Samarqandni ikkinchi marta egallashga kirishdi. Yurush paytida tirli qiyinchiliklarga duch kelgan Bobur atrofida g'ilarning oqibatsizligidan shikoyat qiladi. «Yaxshilik» radifli bu mashhur g'azal bugungi ham katta saboqlar beradi, deb ishonch bilan ayta olamiz.

Shunday qilib, «Boburnoma» Bobur she'rlarida aks etgan hayotiy kechinma va kayfiyatlarini o'rganishi uchun bebaho manbadir. «Boburnoma»ning qimmatli tomoni shundaki, unda muallif o'z hayotida bo'lib o'tgan voqealarni batafsil tasvirlash bilan birga, shu davrdagi kayfiyat va kechinmalarni ham qog'ozga tushiradi. Ayrim she'rlarining yozilish tarixini eslatib o'tadi. Umuman, «Boburnoma»da keltirilgan she'riy parchalar shoir hayoti va ijodini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.